TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1364
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI	1370
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	1377
Sonaev Sanjar Nurmamatovich	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI	1382
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH	1387
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI	1394
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR	1397
B.Yu.Maxsudov	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI	1402
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1408
Tashov Mizrob Maxmudovich	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ	1415
Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович	
O'ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA'SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI	1423
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ	1431
Эрматов Зиядулла Досматович	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1437
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Tashqi iqtisodiy faoliyati mutaxassisligi magistranti
Email: tapilovrsb01@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish amaliyoti va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro boshqaruvning strategik rejalashtirish, institutsional tuzilma, inson resurslarini boshqarish, ta'lim sifati monitoringi va raqamli boshqaruv bilan bog'liq jihatlari ochib berilgan. Xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar asosida xalqaro boshqaruv mexanizmlarining oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish va global ta'lim makoniga integratsiyalashuvni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqaro boshqaruv, universitet boshqaruvi, strategik rejalashtirish, ta'lim sifati, xalqaro integratsiya.

Abstract. This article examines the practice of implementing and improving international governance in higher education institutions. The study analyzes key aspects of international governance, including strategic planning, institutional structures, human resource management, quality assurance mechanisms, and digital governance. Based on international experience and scholarly literature, the positive impact of international governance models on the competitiveness and sustainable development of universities is substantiated. The findings contribute to enhancing governance efficiency in higher education and accelerating integration into the global academic environment.

Keywords: higher education, international governance, university management, strategic planning, quality assurance, internationalization.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы внедрения и совершенствования международного управления в высших учебных заведениях. Особое внимание уделено анализу стратегического планирования, институциональной структуры, управления человеческими ресурсами, механизмов обеспечения качества образования и цифрового управления. На основе международного опыта и научных источников обосновано положительное влияние международных управленческих моделей на конкурентоспособность и устойчивое развитие университетов. Полученные результаты могут быть использованы при формировании эффективной системы управления высшим образованием и усилении его интеграции в глобальное образовательное пространство.

Ключевые слова: высшее образование, международное управление, управление университетом, стратегическое планирование, качество образования, международная интеграция.

KIRISH

Globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi va inson kapitaliga bo'lgan talabning ortib borishi oliy ta'lim muassasalari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi institut, balki xalqaro akademik hamkorlik, innovatsiyalar transferi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruv tamoyillarini joriy etish masalasi zamonaviy rivojlanishning mantiqiy va zarur bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro boshqaruv modeli ta'lim sifati oshirish, institutsional mustaqillikni kuchaytirish, strategik rejalashtirishni takomillashtirish hamda manfaatdor tomonlar — talabalar, professor-o'qituvchilar va xorijiy hamkorlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi. UNESCO va OECD tomonidan olib

borilgan tadqiqotlarda oliy ta'limda boshqaruvning xalqaro standartlarga moslashuvi universitetlarning global reytinglardagi o'rnini va ilmiy salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, Bologna Process doirasida shakllangan boshqaruv yondashuvlari ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham xalqaro boshqaruv elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar, xalqaro akkreditatsiya mexanizmlarining kengayishi, akademik mobillik va zamonaviy menejment usullarining tatbiqi milliy oliy ta'lim muassasalarining global ta'lim makoniga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda. Bu jarayonlar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, universitetlarning institutsional barqarorligi va innovatsion rivojlanishini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish amaliyotini takomillashtirish masalalari ijobiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda xalqaro tajriba va milliy amaliyot uyg'unligi asosida boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berilib, oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruv masalalari so'nggi o'n yilliklarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki fundamental yondashuvlar universitetlarni davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadigan institutlardan nisbatan mustaqil, strategik qarorlar qabul qila oladigan akademik tashkilotlar sifatida talqin qilish bilan bog'liq. Xususan, J. Huisman tomonidan tahrir qilingan tadqiqotlarda oliy ta'lim boshqaruvining muqobil modellarini shakllantirish, ularni muvofiqlashtirish va institutsional darajada moslashtirish masalalari chuqur tahlil qilinadi [1]. Muallif oliy ta'lim boshqaruvida markazlashgan va bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuvlar o'rtasidagi muvozanatni xalqaro boshqaruvning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosda oliy ta'lim boshqaruvining nazariy va amaliy asoslari Forest va Altbach tomonidan tayyorlangan fundamental qo'llanmada keng yoritilgan. Ushbu asarda oliy ta'lim tizimlarining globallashtirish sharoitida rivojlanishi, boshqaruv modellari va institutsional o'zgarishlar kompleks tarzda tahlil qilinadi [2]. Mualliflar universitet boshqaruvida xalqaro standartlarning joriy etilishi ta'lim sifati va ilmiy natijadorlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Austin va Jones oliy ta'lim boshqaruvini global kontekstda ko'rib chiqib, turli mamlakatlar tajribasi asosida boshqaruv nazariyalari va amaliy mexanizmlarini qiyosiy tahlil qiladi [3]. Tadqiqotda universitet boshqaruvida strategik rejalashtirish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik va javobgarlik mexanizmlarining kuchayishi xalqaro boshqaruvning muhim ustunliklari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil sifatida baholanadi.

Amaral va Magalhães tomonidan tahrir qilingan ilmiy ishlar oliy ta'lim boshqaruvi va menejmentning zamonaviy konsepsiyalarini tizimli tarzda yoritadi [4]. Ushbu tadqiqotlarda universitet boshqaruvining institutsional modeli, akademik erkinlik va menejment samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi. Mualliflar xalqaro boshqaruvni joriy etishda milliy ta'lim tizimlarining o'ziga xos jihatlari inobatga olish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

C. Raj Kumar tomonidan tahrirlangan monografiyada oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda davlat rahbariyati va siyosiy institutlarning roli tahlil qilinadi [5]. Asarda oliy ta'lim boshqaruvining huquqiy va institutsional asoslari xalqaro tajriba misolida yoritilib, samarali boshqaruv ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi asoslab beriladi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham oliy ta'lim boshqaruvini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish masalalariga e'tibor kuchayib bormoqda. Begmatovanning tadqiqotida oliy ta'lim boshqaruv tizimini raqamlashtirish jarayonlari xalqaro tajriba asosida tahlil qilinib, raqamli boshqaruv mexanizmlarining institutsional samaradorlikka ta'siri ko'rsatib berilgan [6]. Ushbu yondashuv xalqaro boshqaruvni joriy etishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, Amaral, Jones va Karseth tomonidan olib borilgan qiyosiy tadqiqotlarda turli mamlakatlarda oliy ta'lim boshqaruvining milliy modellari va ularning institutsional xususiyatlari tahlil qilingan [7]. Mualliflar xalqaro boshqaruv elementlarining moslashuvchan tatbiqi universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Oliy ta'lim boshqaruvida sifat menejmenti masalalari G'afforjonovning ilmiy maqolasida ko'rib chiqilgan bo'lib, unda ISO standartlarini joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi [8]. Tadqiqot natijalari xalqaro boshqaruvning normativ va sifatga yo'naltirilgan mexanizmlarini milliy oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va institutsional barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega



ekanini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy manbalar mazkur tadqiqot uchun mustahkam nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish amaliyotini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot doirasida ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalardan olindi. Birlamchi ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, boshqaruv xodimlari hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va yarim tuzilgan intervyular orqali shakllantirildi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa xalqaro tashkilotlar hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va ochiq statistik manbalar asosida jamlandi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil, taqqoslash va tizimli yondashuv asosida qayta ishlanib, xalqaro boshqaruv mexanizmlarining oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ta'siri aniqlandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali milliy va xorijiy tajriba o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar baholanib, boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish masalasi bugungi kunda ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro boshqaruv deganda nafaqat xorijiy tajribani mexanik ko'chirish, balki global akademik maydonda shakllangan samarali boshqaruv tamoyillarini milliy ta'lim tizimining institutsional, ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga mos holda uyg'unlashtirish tushuniladi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining ochiqligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro boshqaruvning asosiy afzalligi strategik rejalashtirish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishida namoyon bo'ladi. An'anaviy boshqaruv modellari ko'pincha qisqa muddatli vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lsa, xalqaro boshqaruv yondashuvi uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirishni talab etadi. Bunda universitet missiyasi, rivojlanish ustuvor yo'nalishlari, ilmiy-tadqiqot salohiyati va ta'lim xizmatlarining global bozordagi o'rnini aniq belgilab olinadi. Natijada oliy ta'lim muassasalari ichki resurslardan yanada samarali foydalanish, tashqi imkoniyatlarni aniqlash va ularni rivojlanish jarayoniga jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish jarayoni ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi. Unda xalqaro boshqaruv elementlari faqat alohida boshqaruv mexanizmi sifatida emas, balki universitet faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, strategik rejalashtirish elementi orqali oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlari aniqlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi oshiriladi. Bu yondashuv universitetlarni qisqa muddatli qarorlardan ko'ra barqaror va istiqbolli rivojlanishga yo'naltiradi (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruv elementlari va ularning asosiy ta'sir yo'nalishlari¹

Xalqaro boshqaruv elementi	Amalga oshirish mexanizmi	Oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga ta'siri
Strategik rejalashtirish	Uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari, KPI asosidagi boshqaruv	Institutsional barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish
Boshqaruv tuzilmasi	Kuzatuv kengashlari, kollegial boshqaruv, shaffof qarorlar	Qarorlar sifati va javobgarlik darajasining oshishi
Inson resurslari boshqaruvi	Ochiq tanlovlar, faoliyat natijasiga asoslangan baholash	Kadrlar salohiyati va ilmiy natijadorlikning oshishi
Ta'lim sifati monitoringi	Xalqaro akkreditatsiya, ichki va tashqi baholash tizimlari	Ta'lim dasturlarining zamonaviyligi va bitiruvchilar raqobatbardoshligi
Raqamli boshqaruv	Elektron boshqaruv platformalari, ma'lumotlar bazalari	Boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va aniqligi
Xalqaro hamkorlik	Qo'shma dasturlar, akademik mobillik, qo'shma tadqiqotlar	Ilmiy va ta'lim salohiyatining kengayishi
Moliyaviy boshqaruv	Grantlar, diversifikatsiyalangan moliyalashtirish	Moliyaviy barqarorlik va innovatsion rivojlanish

1 Muallif ishlanmasi

Jadvalda aks etgan boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish yo'nalishi qarorlar qabul qilishda shaffoflik va javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Kuzatuv kengashlari va kollegial boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirib, boshqaruv qarorlarining sifati va asoslanganligini oshiradi. Bu holat oliy ta'lim muassasalarining institutsional barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq elementlar jadvalda alohida ahamiyat kasb etadi. Ochiq tanlovlar va natijaga yo'naltirilgan baholash tizimlari professor-o'qituvchilar hamda boshqaruv xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ilmiy tadqiqotlar faollashadi, ta'lim jarayonining sifati yaxshilanadi va akademik muhitda sog'lom raqobat shakllanadi.

Ta'lim sifati monitoringi va xalqaro akkreditatsiya mexanizmlari jadvalda ta'lim natijadorligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu mexanizmlar o'quv dasturlarini global mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. Raqamli boshqaruv elementlari esa boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va aniqligini ta'minlab, byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Xalqaro boshqaruvni joriy etishda muhim jihatlardan biri institutsional boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish hisoblanadi. Rivojlangan ta'lim tizimlarida universitet boshqaruvi kollegiallik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga asoslanadi. Bunda kuzatuv kengashlari, mustaqil ekspertlar va manfaatdor tomonlar ishtiroki kengaytiriladi. Ushbu mexanizmlar qarorlar qabul qilish jarayonining sifati oshirib, boshqaruv subyektlari o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Shu bilan birga, akademik va ma'muriy boshqaruv vakolatlarining aniq chegaralanishi boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro boshqaruvning yana bir muhim jihati inson resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish bilan bog'liq. Zamonaviy universitetlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarining salohiyatiga bog'liq. Xalqaro yondashuv kadrlarni tanlash, baholash va rag'batlantirishda ochiq va raqobatga asoslangan mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa akademik faoliyatda sifat va natijadorlikni oshirishga, ilmiy tadqiqotlar hajmi va sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xorijiy tajribada keng qo'llaniladigan "performance-based management" modeli kadrlar faoliyatini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish jarayonida ta'lim sifatini ta'minlash va monitoring qilish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlari ta'lim jarayonining natijadorligini baholashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday mexanizmlar universitetlarni o'quv dasturlarini muntazam yangilab borishga, ta'lim natijalarini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirishga undaydi. Shu orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligi oshadi va oliy ta'lim muassasasining nufuzi mustahkamlanadi.

Raqamli transformatsiya xalqaro boshqaruvni amalga oshirishda muhim tayanch omil hisoblanadi. Zamonaviy axborot tizimlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniqlikni ta'minlaydi. Elektron boshqaruv platformalari, raqamli ma'lumotlar bazalari va tahliliy vositalar orqali universitet faoliyatining barcha yo'nalishlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Xalqaro boshqaruvning muhim komponentlaridan biri akademik hamkorlik va xalqaro integratsiya hisoblanadi. Xorijiy universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplomli yo'nalishlar, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ta'lim salohiyatini kengaytiradi. Bunday hamkorlik nafaqat bilim almashinuvi jadallashtiradi, balki universitet boshqaruviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish orqali boshqaruv xodimlari zamonaviy menejment tajribasini amaliyotda o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish ham xalqaro boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. An'anaviy davlat moliyalashtirishiga tayanib qolmasdan, grantlar, kontraktlar, xususiy sektor bilan hamkorlik va tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Xalqaro tajribada moliyaviy diversifikatsiya boshqaruv mustaqilligini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalariga innovatsion loyihalarni amalga oshirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Xalqaro boshqaruvni joriy etish jarayonida institutsional madaniyat va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ochiqlik, akademik halollik, mas'uliyat va hamkorlikka asoslangan muhit boshqaruv islohotlarining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ushbu qadriyatlar nafaqat boshqaruv hujjatlarida, balki kundalik faoliyatda ham amalda namoyon bo'lishi zarur. Xalqaro standartlarga mos boshqaruv modeli jamoa a'zolari o'rtasida ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi, bu esa islohotlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Milliy oliy ta'lim tizimi sharoitida xalqaro boshqaruvni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Har bir oliy ta'lim muassasasining rivojlanish darajasi, resurslari va strategik ustuvorliklari inobatga olinishi lozim. Xalqaro tajribani tanlab olishda moslashuvchanlik tamoyili ustuvor bo'lib, mahalliy sharoitga mos keladigan mexanizmlar tanlanadi. Bu yondashuv islohotlarning samaradorligini oshirib, ularning barqaror natijalar berishini ta'minlaydi.



Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va universitetlarning global maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon ijobiy ruhda, rivojlanishga yo'naltirilgan strategik yondashuv asosida amalga oshirilganda, milliy oliy ta'lim tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida xalqaro boshqaruvni joriy etish ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va universitetlarning global ta'lim makonidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro boshqaruv tamoyillari strategik rejalashtirishni kuchaytirish, institutsional mustaqillikni kengaytirish hamda ta'lim va ilmiy faoliyat sifatini barqaror ravishda oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, boshqaruv jarayonlarida shaffoflik, javobgarlik va natijadorlikka asoslangan yondashuvlarning tatbiqi oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Soha rivojini jadallashtirish maqsadida, avvalo, oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish, kuzatuv kengashlari va mustaqil ekspertlar ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, professor-o'qituvchilar va boshqaruv xodimlari uchun xalqaro menejment, ta'lim sifati va raqamli boshqaruv yo'nalishlarida tizimli malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Uchinchidan, xalqaro akkreditatsiya va reyting tizimlarida ishtirokni rag'batlantirish orqali ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Shuningdek, xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlarni kengaytirish, akademik mobillikni rivojlantirish va moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish xalqaro boshqaruvni samarali joriy etishning muhim shartlari hisoblanadi. Ushbu takliflarning izchil amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishiga, ta'lim sifatining oshishiga va milliy oliy ta'lim tizimining global miqyosda nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Huisman (ed.). International Perspectives on the Governance of Higher Education: Alternative Frameworks for Coordination. Monograph. – London: Routledge, 2009. – 336 p.
2. J.J.F. Forest, P.G. Altbach (eds.). International Handbook of Higher Education. Handbook. – Dordrecht: Springer, 2006. – 1156 p.
3. I. Austin, G.A. Jones. Governance of Higher Education: Global Perspectives, Theories, and Practices. Monograph. – London: Routledge, 2016. – 256 p.
4. A. Amaral, A. Magalhães (eds.). Handbook on Higher Education Management and Governance. Handbook. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2023. – 512 p.
5. C. Raj Kumar (ed.). The President of India and the Governance of Higher Education Institutions. Monograph. – New Delhi: Universal Law Publishing, 2016. – 348 p.
6. N. Begmatova. Xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim boshqaruv tizimini raqamlashtirish. Ilmiy maqola. – Qo'qon: Qo'qon universiteti xabarnomasi, 2025. – №14. – 132–135-b.
7. A. Amaral, G. Jones, B. Karseth (eds.). Governing Higher Education: National Perspectives on Institutional Governance from Diverse Contexts. Monograph. – Dordrecht: Springer, 2012. – 274 p.
8. J.S. G'afforjonovna. Oliy ta'limda ISO standartlarini joriy etish muammosi. Ilmiy maqola. – Ilmiy impuls, 2025. – №4. – 45–50-b.
9. Ulugbayeva Dilfuza Zufar qizi. OTMda ta'lim resurslarini samarali boshqarish va ularning ta'lim sifatiga ta'siri. Ilmiy maqola. – JMMF Research Journal, 2025. – №2. – 61–67-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17287491>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100